



ISSUES OF LITERARY COMMUNICATION AND LITERARY INFLUENCE IN MODERN ARABIC AND UZBEK STORYWORKING

Dilafruz Zoxriddinovna Muxiddinova

Associate Professor, Doctor of Philological Sciences, TSUOS

Abstract: In the second half of the 20th century, the processes of renewal took place in the modern Arabic and Uzbek narrative, both by internal and external factors. Currents and trends within the framework of modernism, new currents of realism that formed in Europe at the beginning of the 20th century, have been penetrating Arabic literature since the 60s of the 20th century, and Uzbek literature since the 90s through literary connections and in the process of literary influence acquire a national character. This article provides a comparative analysis and analysis of the specifics of the phenomena of literary communication and literary influence in Arabic and Uzbek narratives and the process of adaptation in national literatures.

Key words: modernism, existentialism, surrealism, stream of consciousness symbolism, magical realism, psychological realism, intellectual realism, “mental prose”, “reflective storytelling”, “intellectual prose”.

ZAMONAVIY ARAB VA O'ZBEK HIKOYANA VISLIGIDA ADABIY ALOQA VA ADABIY TA'SIR MASALALARI

Muxiddinova Dilafruz Zoxriddinovna

Fil. f. d., TDSHU dotsenti

Annotatsiya. XX asrning ikkinchi yarmi zamonaviy arab va o‘zbek hikoyanavisligida ham ichki, ham tashqi omillar sabali yangilanish jarayonlari yuz berdi. XX asrning boshlarida Yevropada shakllangan modernizm doirasidagi oqim va yo‘nalishlar, realizmning yangi oqimlari, XX asrning 60-yillardan arab adabiyotiga, 90-yillardan o‘zbek adabiyotiga adabiy aloqalar orqali kirib keladi va adabiy ta‘sirlanish jaryonida milliy tusga ega bo‘lib shakllanadi. Mazkur maqolada arab va o‘zbek hikoyanavisligida mana shu adabiy aloqa va adabiy ta‘sirlanish hodisalari va milliy adabiyotlarda moslashish jarayoni qiyosiy tahlil qilingan va o‘ziga xos hususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: modernizm, ekzistensializm, surrealizm, “ong oqimi” simvolizm, magik realizm, psixologik realizm, intellektual realizm, “o‘ychan proza”, “mulohaza hikoya”, “intellektual nasr”.

Аннотация: Во второй половине XX века в современной арабской и узбекской новеллистике, по причине как внутренних, так и внешних факторов, происходили процессы обновления. Течения и направления в рамках модернизма, новые течения реализма, сформировавшиеся в Европе в начале XX века, с 60-х годов XX века проникают в арабскую литературу, с 90-х годов – в узбекскую литературу через литературные связи и в процессе литературного влияния приобретают национальный характер. В данной статье был проведен сравнительный анализ и анализ специфики явлений литературного общения и литературного влияния в арабском и узбекском повествованиях и процесса адаптации в национальных литературах.

Ключевые слова: модернизм, экзистенциализм, сюрреализм, символизм «потока сознания», магический реализм, психологический реализм, интеллектуальный реализм, «мысленная проза», «рефлексивное повествование», «интеллектуальная проза».

Kirish. Adabiyot betinim rivojlanishda, harakatda, san‘atkor adiblarning tafakkuri tinimsiz badiiy izlanishda ekan, har qanday badiiy ong, tafakkur o‘z o‘rnini

boshqasiga bo‘shatadi. “Ijodkorlar o‘z olamlarini yaratish barobarida dunyoning ertangi tafakkurini ham yaratadilar. Ular voqelikka nisbatan fikr va go‘zallik uyg‘otarkanlar, ertangi kunga ham fikr va go‘zallik qoldiradilar. Zero, ijodkorning ijod sarhadlariga qilgan safari, ayni paytda, tafakkur sari qilgan safari ham demakdir”¹. Adabiyotda ijodiy metodlar, yo‘nalish va oqimlar, ijodkorlar uslubining turfa xilligi badiiy tafakkurni tinimsiz ravishda rivojlanuvchi, yangilanuvchi, o‘z mohiyatiga ko‘ra takomil sari yuzlangan tizim ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotshunos olimi M.Xolbekov ta‘kidlashicha, “Mashhur shvesar psixolog olimi, analitik psixologiyaning asoschisi K.G.Yung fikricha, boshqalarga qaraganda adabiyot va san‘at darg‘alari “*jamoaviy (kollektiv) ongsizlik*” oqimidagi juz‘iy, ammo ko‘zga tashlanvermaydigan o‘zgarishlarni ziyraklik bilan payqab oldilar va keyinchalik buni o‘z ijodlarida aks ettirdilar. Aynan ijod ahlining ushbu ijobiy xislatlari tufayli XX asrning yangi oqimlari, yangi g‘oya va mavzulari, yangicha tafakkur va yondashishlar dastlab adabiyot va san‘atda, keyinchalik esa ilm-fan va ijtimoiy hayotda o‘z aksini topdi”². Darhaqiqat, ijodkor ahlining badiiy tafakkuri takomili tufayli badiiy ijodda yangi oqimlar, yo‘nalishlar natijasida yangilanishlar jarayoni yuzaga keladi.

Asosiy qism. XX asr jahon adabiy jarayonida realizmning tabiiy rivojlanishi jarayonida *magik*, *psixologik*, *intellektual realizm* kabi oqimlar vujudga kelib, uning *neorealizm* deb atalishiga sabab bo‘ldi. Realizm bilan bir qatorda adabiyotda *futurizm*, *ekspressionizm*, *abstraksionizm*, *syurrealizm*, *ekzistensializm*, *absurd adabiyoti* kabi ko‘plab yangi oqimlarni o‘zida mujassam etgan *modernizm* magistral yo‘nalishga aylandi. So‘ng modernizmdan farqli o‘laroq, an‘analarni qisman o‘zida tiklagan, modernistik yozish san‘atlarini o‘zida mujassam etgan *postmodernizm* yo‘nalishi rivojlnana boshladi. XX asrda mana shu yo‘nalish va oqimlar ta‘siri barcha Sharq adabiyotlarida kuzatiladi. Buning sababi, Sharq xalqlari adabiyotini jahon adabiy jarayoniga integratsiyasi, globallashuv davrida o‘zaro ta‘sir va tajriba almashish tamoyillarining jadallahishi, shu bilan birga ijodkorlarga xos bo‘lgan

¹ Эшонқул Н. Мендан “мен” гача. – Т.: Академнашр, 2014. – 101-102 6.

² kh-davron.uz - Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари.

badiiy tafakkurining yangilik sari bo‘lgan tinimsiz harakatidir. Sharq xalqlari adabiyotida yangilanish tamoyillarining u yoki bu milliy adabiyotda namoyon bo‘lish shakllari turlicha o‘ziga xos tus oldi. Arab adabiyoti uzoq va yaqin o‘tmish merosi bilan aloqasini uzmasdan, boy milliy adabiy meros an‘analari bilan uyg‘unlashib, milliy mentalitet va didlariga moslashdi. XX asr ikkinchi yarmida ijod qilgan bir qator arab hikoyanavislari o‘zlaridan oldingi adabiy an‘analarga tanqidiy munosabatni kuchaytirib, “yangi realistlar”ni umumiy ijtimoiy muammolarga berilganlikda, insonni esa bирyoqlama tasvirlashda ayplashdi va ularga muqobil ravishda o‘z shaxsiy tajribalarini va individual uslublarini qarama-qarshi qo‘ydilar.

Natijalar va muhokama. Yangi uslubdagi yozuvchilarning ijodida keng ravishda syurrealistik manzaralar, hayotning ma‘nosizligi to‘g‘risida fikr yuritish va ekzistensializm nuqtai nazardan inson borlig‘ini talqin qilish (ya‘ni tartibsiz dunyoda inson ma‘no topib, faqat o‘ziga ishonib, yolg‘izlikda, rishtalar bog‘lanmasdan oxirat tomon yuradi) kabi g‘oyalar, tasvirlar aks etdi. Arab hikoyanavislari zamonaviy oqimlar va uning badiiy ifoda usullaridan “*ong oqimi*”, *fragmentarlik*, *kinomontaj*, *kollaj*, *gallyutsinatsiya*, *matn osti matn*, *syurrealistik tasvir* kabi usullariga ijodiy yondashgan holda arab xalqi adabiy merosidan *majoz* va *balog ‘at* ilmini boshqa ifodaviy tasviriy vositalar bilan uyg‘unlikda hikoyaning yangi ko‘rinishlarini, zamonaviy tiplarini yaratdilar. Badiiy ijoddagi mazkur ijodiy rang-baranglik Misr, Suriya, Iroq, Livan, Iordaniya, Falastin kabi arab mamlakatlari adabiyotida bir vaqtning o‘zida, ya‘ni XX asrning 1950-yillarning oxiri 1960-yillari boshlarida shakllandı. Badiiy adabiyotdagi g‘oyaviy-estetik o‘zgarishlar, birinchi navbatda, ijodkorlar badiiy tafakkuridagi o‘zgarish bilan bog‘liq edi. Yozuvchilarning borliqni, insonni yangicha idrok qilishlarida ular yashab turgan muhitga shaxsiy munosabatining ahamiyati beqiyos darajada oshdi. Misr va Mashriq arab mamlakatlari adabiyotida mazkur yangilanish jarayonlarining yuzaga keliShiga ma‘lum *ichki* va *tashqi omillar* sabab bo‘ldi. *Ichki omillar* sifatida XX asr o‘rtalarida Yaqin Sharq mamlakatlari, xususan, arab dunyosida muhim siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlarning ro‘y berishi, jumladan, arab-isroiil urushi, arab mamlakatlaridagi ichki nizolar, ziddiyat va qarama-qarshiliklar, iqtisodiy tengsizlik,

ayollar huquqlari, shaxs erkinligi uchun kurash va boshqa shu kabi holatlarning adabiyotga ta'sirini e'tirof etish mumkin. Shuningdek, Sharq xalqlariga xos bo'lgan kuzatuvchanlik, voqelikning ichki mohiyatiga e'tibor bilan qarash, uning asl mazmunini qidirish va bu xususiyatlarning musiqa, she'riyat, borliqni anglash falsafasida kuzatilishini ham ichki omil sifatida ta'kidlash joiz. Tashqi omillardan G'arb adabiyotining, undagi zamonaviy yo'naliш va oqimlarning ta'sirini, ularning namoyandalari Jeyms Joys, Virjiniya Vulf, Frans Kafka, Marsel Prust, Jan Pol Sartr, Alber Kamyu kabi ko'plab adiblarni ko'rsatib o'tish mumkin. Rus sharqshunos olimi L.A. Aganinaning ta'kidlashicha, "Sharq adabiyotida tarixiy-siyosiy sharoit hosil qilgan mafkuraviy bo'shliq modernizmning kirib kelishiga asos bo'ldi va bu narsa ayrim yozuvchilardagi g'oyaviy yo'naliшlarning o'zgarishiga sabab bo'ldi. Sharq yozuvchilarining jahon adabiyoti tajribasini tezlik bilan o'zlashtirishga oid tabiiy intilishlari, buning natijasida shakl murakkablashuvi, ko'pincha yozuvchining inson va borliqqa bo'lgan munosabatining o'zgarishi, olamni poetik idrok etishdagi yangi uslublarga intilish kabi adabiy jarayonlar ham modernizmning shakllani Shiga anchagina yordam berdi. Badiiy tilning murakkablashuv jarayoni esa faqat milliy adabiyot doirasidagina yuz berdi"³. Zamonaviy arab adabiyotida yuzaga kelgan yangilanish bosqichida jahon adabiyotidagi zamonaviy yo'naliш va oqimlar moslashish jarayonini boshidan o'tkazdi. Zamonaviy arab hikoyanavisligi jahon adabiy jaryonidagi turli zamonaviy yo'naliш va oqimlarning mazmun-mohiyati va badiiy tasvir va ifoda vositalarini o'zlashtirish jarayonida bir vaqtning o'zida milliylikni, milliy koloritni, sharqona qadriyat va boy adabiy meros an'analarini saqlab qolishga intilish kuchaydi. Arab yozuvchilari hikoyalarda o'rta asr adabiyotining ham badiiy-poetik an'analarini yangilanish jarayonida uni, boyitib, takomillashgan ko'rinishda davom ettirgan holda zamonaviy milliy arab hikoyasini yaratdilar. Yangilanish tamoyillari yozuvchilarning zamonaviy mavzularni yoritib berishda muqaddas diniy kitoblarda, rivoyatlarda keltirilgan payg'ambarlar haqidagi qissalar, jahon adabiyotidagi yoki milliy adabiyotdagi mifologik va asotiriy

³ Аганина Л.А. Введение. // Сб. науч. трудов: Идеологическая борьба и современные литературы зарубежного Востока. – М.: Наука, 1977. – С.5.

obrazlarga bilvosita yoki bevosita murojaat etishlarida kuzatilmogda. Shaklan yangilanish tamoyillari esa asar kompozitsiyasida maqoma janri xususiyatlari, tarixiy xronika, sayohatnoma, qissa, ibratli hikoya (pritcha), masal (basnya) kabi o‘rta asr adabiyoti an‘analariga tayangan holda zamonaviy hayotiy muammolarni tasvirlashda namoyon bo‘lmoqda.

Mana shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, XX asrning 50-60-yillarida Misr va Mashriq arab mamlakatlari adabiyotida yuzaga kelgan yangilanish jarayonlari XX asrning 80-90-yillarida zamonaviy o‘zbek adabiyotida ham kuzatiladi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida yangilanish tamoyillarining vujudga kelishida ham ichki va tashqi omillar kuzatiladi. Ichki omil shuki, zamonaviy o‘zbek adabiyotining jahon adabiy jarayoniga qo‘shilishi mamlakatning mustaqillikka erishishi bilan bog‘liq holda kechdi. O‘zbek adabiyoti mustaqillik yillarida barcha jabhalar kabi jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuv jarayonini boshdan kechirdi. Jahonning mashhur modernist yozuvchilari va Lotin Amerika adabiyoti vakillari (Alber Kamyu, Jeyms Joys, Frans Kafka, Gabriel Garsia Markes, Poelo Koel va b.) ijodi o‘zbek tiliga tarjima qilina boshladi. Zamonaviy o‘zbek hikoyanavislarning badiiy tafakkurini kengayib borishi, insonning shaxsiyati, uning ichki “meni”ni tasvirlash, uning ichki dunyosini har tomonlama ochib berishga harakat kuchaydi. Adabiyotshunos olim Xurshid Do‘stmuhammadning ta‘kidlashicha, “Yangi o‘zbek hikoyachiligida ham yillar mobaynida yangicha tasvir vositalarini kashf etish jarayoni kechdi. Ramz, timsol, majoz so‘nggi yillar hikoyachiligmizning ko‘rki, bezagi, jilosiga aylandi”⁴. Bu davrda yaratilgan o‘zbek hikoyanavisliga “mulohaza-hikoya”, “o‘ychan proza”, “intellektual nasr”⁵ kabi nomlar berilgan, nomlanish jarayoni davomi etmoqda. Zamonaviy o‘zbek hikoyanavislari ham arab yozuvchilari kabi zamonaviy yo‘nalish va oqimlarga o‘zbek xalqining mentalitetiga, milliy qadriyatlariga moslagan holda yondashishga harakat qilmoqdalar. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida yangi uslubda Omon Muxtor, Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Isojon Sulton, Salomat Vafo, Zulfiya Qurolboy qizi

⁴ Дўстмуҳаммад Х. Миллий ҳикоя: изланишлар, ютуқлар, истаклар./ Озод ватан саодати. Адабий танқид/ – Т.:Адиб. 2013, – Б.234.

⁵ Ўша китоб, – Б.230.

kabi bir qator hikoyanavislar ijodida betakror uslubiy jilolarni ko‘rish mumkin. XX asrning 90- yillaridan keyingi va XXI asr boshlari zamonaviy o‘zbek hikoyanavisligida ham arab hikoyanavisligidagi kabi shakliy va mazmuniy o‘zgarishlar, yangilanishlarning o‘xhash tomonlari talaygina. Jumladan, g‘ayritabiiy, sirli voqelik, psixologik tasvirning o‘tkirligi, tagma‘noning serqatlamligi, falsafiy mushohadaning, psixologik tahlilga moyillikning kuchayishi ko‘zga tashlanadi. Zamonaviy o‘zbek hikoyanavisligida ham “*ong oqimi*”, *kollaj*, *gallyutsinatsiya*, *tush*, *tagma ‘nolilik*, *ramziylik* va *majoziylik*, *assotsiativ fikrlash* kabi badiiy tasvir va ifoda vositalari, jahon mifologik syujet va obrazlarga, muqaddas diniy kitoblarda keltirilgan rivoyatlarga yangicha ijodiy yondashuv, tasavvufiy g‘oyalarning ifodalanishi kuzatilmoxda. Zero, o‘zbek adibi Isojon Sulton ta‘kidlaganidek, “Bugunning nasrida uchta quvvatli tamoyil yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi va, aytish mumkinki, har uchchala tamoyilning ham o‘z iste‘dodlari, o‘z ustalari bor. Birinchisi, milliy ruhni, xalq ruhini milliy usullarda yanada rang-baranglashtirib taqdim etish, ikkinchisi – xalq shuurida uzoq yillar yashab kelayotgan o‘lmas timsollarni olam ahliga namoyon qilish va uchinchisi – butun dunyo adabiy tafakkurida ro‘y berayotgan, ammo bizning adabiyotimiz uchun yangi hisoblangan shakllarni olib kirib, o‘z ruhimiz bilan to‘ldirishdan iborat”⁶. Mana shu uchchala tamoyil zamonaviy arab va o‘zbek nasrida kengroq namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa. XX asr oxirida insoniyat hayotida yangi tamoyil - siyosat, iqtisod va madaniyatni o‘zida qamrab olgan globallashuv jarayoni shakllandi. Adabiyotda bu tamoyil ijobiy natijalarga olib keldi: milliy adabiyot yutuqlari tezlik bilan ommalashdi, millatlararo adabiy ta‘sir kuchaydi. Zamonaviy arab yozuvchilarining badiiy ongida zamonaviy majoziy nasrga erkin munosabatni: chuqur ta‘sirchanlik, majoziylik va ramziylikka bo‘lgan o‘ziga xos qiziqishni shakllantirdi. Jahon adabiy jarayoni betinim harakatda va rivojlanishda ekan, adabiy aloqa, adabiy ta‘sirlar natijasida, hamda adiblardagi badiiy tafakkur tarzining tabiiy ravishda bir bosqichdan ikkinchi bosqich tomon o‘sib borishi orqali adabiyot, san‘at rivojlanib boradi.

⁶ kh-davron.uz> kutubxonasi Isajon Sulton. Ҳазрати мажоз. Ўзбек тарихи, адабиёти ва маданияти.

ADABIYOTLAR.

1. Аганина Л.А. Введение. // Сб. науч. трудов: Идеологическая борьба и современные литературы зарубежного Востока. – М.: Наука, 1977. – С.5.
2. Do ‘stmuhammad X. Milliy hikoya: izlanishlar, yutuqlar, istaklar./ Ozod vatan saodati. Adabiy tanqid/ – T.:Adib. 2013, – B.234.
3. Eshonqul N. Menden “men” gacha. – T.: Akademnashr, 2014. – 101-102 b.
4. kh-davron.uz - Xolbekov M. XX asr modern adabiyoti manzaralari.
5. kh-davron.uz> kutubxona Isajon Sulton. Hazrati majoz. O‘zbek tarixi, adabiyoti va madaniyati.